

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

7

2023




- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti



7491

ISSN: 2992-8982

- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rincbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 406 sahifa, 30-iyul, 2023-yil.

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyatni rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rincbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rincbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rincbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Resp. Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rincbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YomMMIB birinchi prorektori

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasи professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rincbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'onan davlat universiteti dotsenti

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Imomqulov To'iqin Burxonovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,

O'zR Tabiat resurslari vazirligi,

O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining

2023-yil 1-apreldagi 336/3-soni qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Green Economy Transition Strategy for Uzbekistan	6
Raekwon Chung , Chairman, Supervisory Committee for New Climate Innovation Center at TSUE	
Jahon Savdo Tashkilotiga a'zolikning dolzarb masalalari	8
Nodira Shotursunova , Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)	
"Yashil iqtisodiyot"dan "yashil taraqqiyot" sari	12
Shoyqulov Baxtiyor Bakirovich , t.f.n., dotsent	
Tadbirkorlik faoliyatida yuzaga keladigan risklarni sug'urtalashning mohiyati va xususiyatlari.....	16
Egamov Zoxid Baxtiyarovich , bosh mutaxassisi	
Unleashing the Potential of Human Capital for Green Development:	
Bridging the Gap between Environmental Sustainability and Skill Development	26
Muratova Muzayana , Teacher	
Анализ состояния применения механизма инновационного управления инфраструктурами нефтегазовых предприятий в условиях глобального потепления земли.....	34
Кучаров Аброр Сабиржанович , профессор; Динара Нурмамад кизи Ишманова , доцент; Тю Константин Геннадьевич , соисследователь	
Enhancing Methodology for Developing Professional and Communicative Skills	
of Future Economists in the Context of Teaching English and Green Economy	39
Nargiza Samandarova Muxammadovna , Teacher	
The Role of Higher Education in Shaping a Sustainable Green Economy.....	47
Ikromov Sayidolim , Teacher	
O'zbekistonda yashil turizmni rivojlantirish istiqbollari.....	54
Rasulova Nigora Yusupovna , kafedra assistenti	
Qishloq hududlarini rivojlantirishda agroturizmnинг аhamiyati	58
Jontemirova Iroda Ikrom qizi , talaba	
Iqtisodiy rivojlanish yo'lida "Yashil iqtisodiyot"ning o'rni	61
Hamroyeva Sevinchbonu Hamroyevna , talaba	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyot va yashil byudjetlashtirish tizimiga o'tishning ahamiyati.....	64
Raxmanov M. A. , tayanch doktorant	
Sustainable Globalization: Nurturing a Green Economy in Higher Education.....	68
Tukhtaeva Shakhnoza , Teacher	
Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni investitsiyalar yordamida oshirish xususiyatlari.....	75
Bauyeddinov Majit Janizaqovich , kafedra dotsenti; Djumaniyazov Ubbiniyaz Ismayl uli , tayanch doktoranti	
Qishloq xo'jaligi nisbiy samaradorligini baholash	79
Berkinov Bozorboy , iqtisodiyot fanlari doktori, professor; Qulmatova Sayyora Safarovna , PhD; Ruxsatova Rushana O'ktamovna , erkin tadqiqotchisi	
O'zbekiston Respublikasidagi yirik tijorat banklari kreditlash amaliyotining ekonometrik tahlil va natijalari	86
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich , mustaqil izlanuvchi	
O'zbekistonda eksportni kreditlash mexanizmlarini yanada kengaytirish yo'nalishlari.....	97
G'aniyev Shaxriddin Abduvoxidovich , i. f. d., professor; Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich , i. f. f. d. (PhD)	
Tijorat banklarida iqtisodiy-matematik modellashtirish samaradorligini yanada oshirish usullari.....	102
Raxmanov Mexridin Sindarovich , kafedra dotsent v. b.	
Banklarda moliyaviy resurslarni boshqarishning ayrim rivojlangan mamlakatlar tajribasi.....	106
Ortiqov Uyg'un Davlatovich , kafedra dotsenti, i.f.n.	
Зарубежный опыт в области цифровизации цепочки поставок продуктов питания	115
Марданова Барно Асатуллоевна , докторант	
Environmental culture and building the ecosystem performance: An empirical analysis from Uzbekistan	119
Aziz Zikriyoev , PhD	
Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatini oshirishda innovatsiya va raqamlashtirish bo'yicha xorij tajribasi.....	129
Kambarova Sh. M. i.f.b.f.d. PhD	



Xalqaro dividend siyosati tajribalarida "S&P 500 dividend aristocrats" amaliyoti va uni milliy fond bozorida qo'llash imkoniyatlari.....	134
Sherkuziyeva Nasiba Abrorovna , dotsent	
Yirik sanoat korxonalarida innovatsion menejmentni joriy etish asosida mehnat samaradorligini oshirish yo'llari	139
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich , i. f. b. f. d. (PhD), dotsent; Saotaliyeva Nozima Isomiddinovna , talaba	
Byudjyetdan tashqari mablag'lari samaradorligini oshirishda davlat xaridlarining roli	147
Norov Akbar Ruzimamatovich	
O'zbekistonda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish jarayonlari tahlili	151
Egamberiyev Shuxrat Satimbayevich , i.f.f.d.(PhD)	
Aholining tadbirkorlik faoliyatini oshirishda oilaviy tadbirkorlikning roli	158
Xudayarova Maftuna Shavkatovna , tayanch doktorant	
Elektron tijoratni samarali tashkil etishda raqamli platformalarning yaratilish texnologiyasi	164
Karimova Shirin Zoxid qizi , tayanch doktorant	
Tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish orqali aholi bandligini ta'minlash	168
Shakirova Nigora Axralovna , kafedra dotsenti v.b.	
Aglomeratsiya iqtisodiyoti – hududiy rivojlanini harakatlantiruvchi omili sifatida	172
Raximbayev Akmal Azatboyevich , mustaqil tadqiqotchi	
Overview of Environmental Management in Uzbekistan: A Comparative Analysis of Protected Areas and Waste Management.....	177
Mamadjonova Sarvinoz Sharifjonovna , PhD	
Obligatsiyalar bozorining paydo bo'lishi va uning iqtisodiyotga kapital jalb qilishdagi ahamiyati	182
Xushvaqov Islombok Muxammadi o'g'li , tayanch doktorant	
Iqtisodiy subyektlarga soliq yukini hisoblashning ahamiyati va zarurati.....	186
Abduturopov Jasurbek Nozimjonovich , mustaqil izlanuvchi	
Muammoli kreditlar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	195
Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li	
Yangi O'zbekiston taraqqiyotida sug'urta munosabatlarini amalga oshirishning ahamiyati va zarurligi.....	199
Abduturapova Dildora Farxodjon qizi , tayanch doktorant	
Assotsiativ qoidalar va bozor savatlarining tahlili	205
Sh. B. Rajabov; Sadinov Aziz Ziyadullayevich , 3 st year doctoral student	
Mamlakatda davlat soliq xizmati organlari soliq ma'muriyatichiligi faoliyati tahlili.....	210
Tashmuxamedova Yayra , tadqiqotchi	
Exploring the Integration of Management and Marketing Strategies in Higher Education Institutions: Addressing Crucial Gaps for Enhanced Organizational Performance.....	213
Rakhimova Gulnoza , Teacher	
Особенности научной биографии художника Урала Тансыкбаева (на материале эпистолярного наследия).....	218
Искендер Аккуралай Абдиуалиевна , докторант	
Raqamli iqtisodiyot: milliy iqtisodiyot drayveri.....	222
Kutbitdinova Moixigul Inoyatovna , kafedra dotsenti; Berdiyeva Janonaxon Jahongir qizi	
Роль цифровизации туристической отрасли в повышении её экспортного потенциала страны	228
Суюнова Фотима Баходир кизи , базовый докторант	
Targetirovaniye inflatsii v Uzbekistane: predposylki primeneniya i pervyye itogi	233
Рашидов Рахимjon Исандарович , в.и.о доцента; Якубова Шамшинур Шухратовна , к.э.н., доцент, докторант (DSc)	
O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyati va uning barqarorligini ta'minlashda sug'urtaning o'rni	240
Nomozova Qumri Isoyevna , iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	
Tijorat banklarining investitsion jozibadorligini takomillashtirishning xorijiy davlatlar tajribalari.....	248
Nazarov Qilich Xolmuradovich , kafedra assistenti	
Bank moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda huquqiy mexanizmlarning o'rni	255
Akbarov Behzodhon Ulug'bek o'g'li , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklarida muammoli aktivlarni boshqarishning dolzarb masalalari.....	262
Do'sanov Doniyor , magistr	



Tijorat banklarida raqamli texnologiyalarni joriy qilish xususidagi ilmiy-nazariy qarashlar.....	269
N. N. Ro'ziyev	
Exploring the Potential of Islamic Finance in Uzbekistan.....	277
Sattorova Nasiba G'anijon qizi, Teacher	
O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari faoliyatini tartibga solish tizimining zamonaviy holati.....	284
Murodova Dilnoza Choriyevna, PhD	
Kredit mexanizmini metodologik asoslarini takomillashtirish	288
Gadoyev So'hrob Jumakulovich, mustaqil tadqiqotchi	
Korxonalarda raqamli marketing vositalaridan foydalanish xususiyatlari.....	295
M. A. Saparova, talaba	
Prioryetetnye napravleniya modernizatsii sistemy podgotovki turistskikh kadrov.....	299
Ochilova Xilola Farmonovna, k.э.н., dozent	
Improving the use of competitive strategies in the management of sewing and knitting enterprises during green development	304
Vafoyeva Dilafruz, Teacher	
O'zbekistonda savdo xizmatlari sohasining rivojlanish tendensiyasi va istiqbollari	311
Xojiyev Elshod Yoqub o'g'li, katta o'qituvchisi, PhD	
O'zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy himoya qilishning zamonaviy statistik usullaridagi tahlili	316
Kutbitdinova Muhayyoxon Inoyatovna, tayanch doktorant	
O'zbekiston to'qimachilik sanoatida CRM strategyalaridan foydalanish yo'llari	323
Xalilova Nafisa Komilovna, magistrant	
Ko'zi ojiz shaxslarni ish bilan ta'minlashni qonunchilik vositasida tartibga solishdagi xorijiy tajriba	327
Usmonov Ziyodulla Ulmas o'g'li, tayanch doktarant	
Optimizatsii operatsionnoi strategii i povyshenie ekonomicheskogo potentsiala chlopkovo-tekstil'nykh klastерov	334
Dzhurabaev Otabek Dzhurabaevich, dozent kafedry	
Neobходimost' upravleniya aktivami i passivami sovremennymi bankami Uzbekistana	341
Fattahova Munisa Abduxamitovna	
Transport logistika xizmatini eksportni takomillashtirishga ta'siri	349
Jumabayeva Akmole Sheraliyevich, magistrant	
Cifrovaya valyuta:可能ные последствия вывода из обращения наличных денег	354
Baxromov Mirzaakhmad Rustam ugли, student; Abdikarimova Dina Rустамхановна, научный руководитель, д. э. н. (DSc)	
Systematic mapping study of higher education in green development context.....	361
Asqarova Feruza Abdullaevna, Senior Teacher	
O'zbekistonda rekreatsiya turizmini rivojlantirish imkoniyatlari.....	368
Vayskulov Ramazon Alisher o'g'li, kafedra o'qituvchisi; Shaymanova Nigora Yusupovna, tayanch doktoranti	
Oсобенности подготовки юных футболистов на этапах начальной подготовки, спортивно – оздоровительном и групп начальной специализации.....	373
D. K. Ismagilov, kandidat pedagogicheskikh nauk, dozent	
Optimizing Financial Resources Management in Treasury Systems for Sustainable Green Development.....	377
Shodmonkulova Shahlo, PhD student	
Iqtisodiy xavfsizlikning institutsional asoslarini takomillashtirishning xorij davlatlar tajribasi	384
Mamatov Sardor Axmatjonovich, mustaqil tadqiqotchi	
Bank tizimida resurs bazasini mustahkamlash yo'llari.....	390
Voxidov Oybek Rozikovich, mustaqil tadqiqotchisi	
Integrating Career-Oriented Communication Competences in English Language Teaching for Future Specialists in Higher Education Institutions: A Catalyst for Green Economy	398
Rajapov Sulaymon Nuraddin Ugli, Teacher	
Tijorat banklari faoliyatida raqamli texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini baholash istiqbollari	406
Fayziyeva Muyassarzoda Xancharovna, mustaqil izlanuvchi (PhD)	



YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA SUG'URTA MUNOSABATLARINI AMALGA OSHIRISHNING AHAMIYATI VA ZARURLIGI

Abduturapova Dildora Farxodjon qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti



Annotatsiya: Iqtisodiy kategoriya sifatida sug'urtaning pul munosabatlari tizimida boshqa rivojlangan davlatlar singari yurtimizda ham alohida o'rninga ega ekanligini olib borilayotgan islohotlardan ham ko'rishimiz mumkin. Ushbu maqolada sug'urta oldindan ko'rib bo'lmaydigan tabiiy va boshqa hodisalar ro'y berishi oqibatida ko'rish mumkin bo'lgan zararlarni qoplash bilan bog'liq bo'lgan maqsadli pul fondlarining jamg'arilishi va undan foydalanish maqsadida amalga oshiriladi-gan pul munosabatlari yig'indisi sifatida yoritilgan hamda tahlillar, kuzatuvlar asosida uning bozordagi holati o'rganilgan.

Kalit so'zlar: sug'urta, sug'urta mukofoti, transformatsiya, risklar.

Аннотация: Из проводимых реформ видно, что страхование как экономическая категория занимает особое место в системе денежных отношений как в нашей стране, так и в других развитых странах. В данной статье страхование выделено как сумма денежных отношений, осуществляемых в целях накопления и использования целевых денежных средств, связанных с возмещением убытков, возникающих в связи с наступлением непредвиденных природных и иных событий, и его положением на рынке изучается на основе анализов и наблюдений.

Ключевые слова: страхование, страховая премия, трансформация, риски.

Abstract: We can see from the ongoing reforms that insurance as an economic category has a special place in the system of monetary relations in our country as well as in other developed countries. In this article, insurance is highlighted as a sum of monetary relations carried out for the purpose of accumulation and use of target money funds related to the compensation of damages that can be seen due to the occurrence of unforeseen natural and other events, and its situation in the market is studied based on analyzes and observations.

Key words: insurance, insurance premium, transformation, risks.

KIRISH

Hozirgi paytda yuzaga kelgan iqtisodiy vaziyatda sug'urta xizmatlarini amalga oshiruvchi korxonalar faoliyatida samaradorligini oshirish eng muhim masalalardan biriga aylanmoqda. "Swiss Re Institute" ning so'nggi xalqaro sug'urta hisobotiga ko'ra 2023-yilda jahon sug'urta bozorining barqaror o'sishini bashorat qilmoqda. Nominal nuqtai nazardan, global sug'urta mukofotlari 2022-yilda birinchi-marta 7 trln. dollar yoki 6,1 %ga os-hdi, bu barqaror bandlik, daromadlarning o'sishi, bozor sharoitlarining keskinlashishi va pandemiyadan keyin o'llim xavfidan xabardorlikni oshirish bilan ta'minlandi. Sug'ortalashda global iqtisodiyotning pastlashi va ko'p yillik inflyatsiya o'sishi keyingi 24 oy ichida ko'rsatkichlarning kutilganidan 1,2%ga past bo'lishi kutilmoqda¹.

Xorijiy kompaniyalarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, sug'urta kompaniyalaridagi so'nggi innovatsiyalar va ularni kkompaniyalargataklif etish, zamонави Innovatsion yondashuvlarni sohaga jaib qilish, sohadagi kadrlarning malakasi va ko'nikmalarini oshirish, iqtisodiyotdagи sug'urta turlarining raqamlashtirilishiga zamin yaratish, investitsion loyihalarni soha rivojiga yo'naltirish va bunda yangi usul hamda mexanizmlardan foydalanishga katta e'tibor qaratish lozim bo'lib qolmoqda. Bu esa o'z navbatida sug'urta kompaniyalaridagi ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish va chuqurlashtirish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

1 <https://www.insur-info.ru/press/176035>



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Sug'urta xizmatlari sohasida iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish xususidagi yondashuvlar hamda amaliy jihatlarini o'rganish bo'yicha S. A. Osenko, O. N. Kozlova, I. S. Yaroshenko, R. T. Yuldashev² va boshqalar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib birligani.

Mahalliy olimlar qatoriga T. Iminov, H. Sobirov, X. Shennayev, Q. Qo'ldoshev, D. Baratova, I. Ochilov, N. Iminova, I. X. Abduraxmonovlarning³ ishlari kiritish mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ilmiy abstraksiya, tizimli tahlil, iqtisodiy-matematik modellashtirish, ekspert baholash, prognozlash va boshqa standart usullardan foydalanilgan.


TAHLIL VA NATIJALAR

Sug'urta bozorining rivojlanishi, uning mamlakatimizda tutgan o'rni, sug'urta jarayonlarini faollashtirish ko'p jihatdan sug'urta xizmatlarining sifatiga, ayniqsa, sug'urtalovchilar tomonidan sug'urta qoplamasining holati, sug'urtaning mamlakatdagi mavqeyi, aholining sug'urta madaniyati va ularning sug'urtaga bo'lgan ishonchi bilan uzviy bog'liqidir. Bunda avvalo, sug'urta xizmatlarini takomillashtirish, sug'urtalanuvchilarning mulkiy manfaatlarini himoya qilishni ta'minlovchi yangi mexanizmlar va raqobatbardosh sug'urta mahsulotlarini izchil joriy etish orqali sug'urta biznesini jadal rivojlanirish mumkin bo'ladi.

Ayniqsa, raqamlashtirish, risklarning yangi turlari va mijozlarning talablari sug'urta sohasini tubdan o'zgartirib, iste'molchilar uchun har taraflama qulay, ham arzon, ham sifatlari xizmatlarni joriy qilishni taqozo etmoqda.

Shu munosabat bilan, bugungi kunda sug'urta munosabatlarining zamonaviy bosqichlari, jahon sug'urta bozorining integratsiyalashuv jarayoni o'zbek moliya bozorida sug'urta munosabatlarining transformatsion o'zgarishlarini talab etmoqda.

Transformatsiya atamasi (lot. *Transformatio*) – qayta o'zgarish, qayta hosil bo'lish) degan ma'noni anglatadi. Barcha sohalar ham zamonga, talabga va taraqqiyot qarab transformatsiyalani, o'z davriga moslashib boradi. Bu esa avvalo bozor tuzilmasi bilan o'zaro bog'liqidir. Sug'urta bozorining tuzilmasi – bu sug'urta munosabatlarda ishtiroy etuvchi institutlar o'rtasidagi turli nisbatlar orqali, ya'ni uning subyektlari (sug'urta kompaniyalari, sug'urtalovchilar) va obyektlari (sug'urta turlari va texnologiyasi) o'rtasidagi oldindan tanlangan mezonlarga muvofiq vujudga keladigan va qayta ishlab chiqilgan nisbatlar o'rtasidagi jarayonlardir (1.2-rasm). Keng ma'noda sug'urta bozori – pul munosabatlarining bir ko'rinishi, tor ma'noda iqtisodiy makondir. U yirik segmentlardan iborat bo'lib, bular sug'urtalovchilar (sug'urta kompaniyalari), sug'urtalanuvchilar (jismoniy va yuridik shaxslar) hamda sug'urta xizmatlaridan iborat.



1-rasm: Sug'urta munosabatlari tuzilmasi⁴

- 2 Осенко С. А. Административная ответственность в сфере страхования / С. А. Осенко // промышл.-торгово-право. – 2016. – № 4. – С. 26–29./Козлова О.Н., Котова О.Н., Литвинова Э.Ю. Актуальные проблемы страхования жизни и их решение с использованием маркетингового подхода // Экономические и гуманитарные науки. 2017. № 5. С. 75–88/Ярошенко И.С. Право социального обеспечения: учеб. Пособие. Киев: КНЭУ, 2005, 232 б./ Юлдашев. Введение в продажу страхования. – М.: 2005. 6-бет.
- 3 Iminov T. K. Sug'urta bozori islohotlari rivojlanish bosqichida. //Xalq so'zi, 2021-yil 8-yanvar, №5 (7785)./ Sobirov H. R. Sug'urta: 100 savol va javob. – Т. : "Mehnat", 1998-yil. 16-bet. / X. M. Shennayev, I. K. Ochilov, S. E. Shirinov, I. G. Kenjayev. Sug'urta ishi. – Т. : "Taqakkur Bo'stoni", 2014-y. 21 bet/ Baratova D. A. O'zbekistonda jamg'arib boriladigan hayot sug'urtasini rivojlanirish yo'llari – Dissertatsiya avtoreferati. iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). – Toshkent, 2020-y.; Q. M. Qo'ldoshev "O'zbekiston milliy sug'urta bozorida o'zaro sug'urta xizmatlarini rivojlanirish masalalari" "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 2,-mart-aprel, 2019-y. Иминова Н.А. Управление экономическими рисками в сфере связи и информатизации. Дис. канд. экон. наук. – Т.: ТАТУ, 2011. –188 с. I. X. Abduraxmonov. Sug'urta nazariyasi va amaliyoti: o'quv qo'llanma. – Т. : "Iqtisod-Moliya". –2018.-40 b.
- 4 Muallif ishlansmasi



Sug'urta munosabatlari tuzilmasi quyidagi shartlarga asoslanadi:

- pul-kredit, byudjet, valyuta kabi moliyaning muhim bo'g'inlarining rivojlanish darajalari va ko'lami o'rtasidagi nomutanosibliklarni bartaraf etish;
- mamlakat aholisining hayot sifatini yaxshilashga iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik bilan bog'liq bo'lgan mulkiy manfaatlarini himoya qilish;
- iqtisodiy rivojlanishda investitsion salohiyat bilan uzviy bog'liq bo'lgan pul-kredit munosabatlarini, shu jumladan, sug'urta kompaniyalarini tomonidan yo'lga qo'yish.

Jahon iqtisodiyotidagi innovatsion jarayonlarni, shu jumladan, O'zbekistonning bosqichma-bosqich integratsiyalashuvi milliy sug'urta bozorining barqaror rivojlanishini taqazo etmoqda. Umumiyligida sug'urta bozori – bozor infratuzilmasisidagi sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchi o'rtasidagi munosabatlarni ta'minlovchi murakkab jarayonlarni z ichiga olib, bunda jamiyatni ijtimoiy himoyasini ta'minlash maqsadida sug'urta fondini tashkil etish va taqsimlashga ixtisoslashgan pul munosabatlarini amalga oshiruvchi tashkilot hamda sug'urta jarayonini amalga oshiruvchi kompaniyalar majmui sifatida qaraladi.

Sug'urta munosabatlarini amalga oshirishda ko'pincha birnechta omillar tufayli murakkab bo'lgan. Biroq, bugungi kunda boshqa sohalar singari, sug'urta tashkilotlari ham raqamli texnologiyalari bilan o'zgarib bormoqda va bu mijozlar auditoriyasiga qaratilgan. Ilgari sug'urta munosabatlariga kirishishda kompaniyalar bilan mijozlar o'rtasida aloqalar kam bo'lgan, asosan sug'urtalovchilar o'z mijozlari bilan munosabatlarni yo'lga qo'yish imkoniyatiga deyarli ega emasdilar. Ko'pincha mijozlar kompaniya bilan sug'urta hodisisasi ro'y berganda, yoki sotuv jarayonida munosabatga kirishganlar. Bu boshqa soha bilan taqqoslaganda mijoz haqida ma'lumot yig'ish va ularning istaklarini o'rganish uchun juda kam ma'lumot deganidir.

Ikkinchidan, mijozlar sug'urta brendiga hissiy jihatdan bog'liq bo'lmaganlar. Majburiyat uchun eng qulay sug'urta polisini sotib olish bilan kifoyalangan. Bugungi kunda sug'urta munosabatlarining transformatsiyasi butun mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy holatiga ijobjiy ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Negaki, sug'urta tarmog'ining rivojlanish va faoliyat darajasi, iqtisodiy salohiyati va uning darajasi kompaniyalar kapitali, risklarni boshqarish darajasi bilan belgilanadi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi sug'urta kompaniyalar soni dinamikasi yildan yilga ortib borayotganini ko'rsatmoqda. 2022-yil holatiga ko'ra sug'urta tashkilotlarining umumiyligi soni 41 tani tashkil etdi (1-jadval).

Yurtimiz iqtisodiyotini modernizatsiya qilish bo'yicha qarorlarni amalga oshirish jarayonida sug'urta sohasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Moliya vazirligi huzuridagi Sug'urta bozorini rivojlantirish agentligirasmayi ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda sug'urta mukofotlarining umumiyligi hajmi 6,2trln. so'mni tashkil etdi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 59,7% yuqori.

1-jadval: O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozorining subyektlari⁵, dona

Sug'urta bozori subyektlari	2019	2020	2021	2022
Umumiyligida sug'urta kompaniyalarini	28	32	34	33
Hayot sug'urta kompaniyasi	8	8	8	8
Jami	36	40	41	41

Sug'urta shartnomalari bo'yicha to'lovlar hajmi 46,2% ga ortdi va 2,6 trln. so'mni tashkil etdi, 7951 868 ta yangi shartnomalari tuzilib, ularning 89 foizi jismoniy shaxslar bilan bo'lgan va bu sug'urta bozori dinamikasiga ijobjiy ta'sir ko'rsatdi.

Hayotni sug'urtalash mukofotlarining o'sish sur'ati 11,8% ga ortdi. Bunda sug'urta mahsulotlarini sotish tarkibidagi asosiy vositachilar banklar bo'lib, ular: kreditlar va jamg'arib boriladigan hayot sug'urtasining o'sishi bilan bog'liq bo'lib, ularning katta qismi banklar orqali sotiladi.

Sug'urta bozorining holatin aks ettiruvchi asosiy ko'rsatkichlardan biri – bu sug'urta mukofotidir. O'yaymizki, sug'urta mukofotlarining ortishi hududlarda sug'urta kompaniyalarini filiallari yoki yangi sug'urta kompaniyalarining ko'payishi bilan bog'liq.

Shuning uchun ham sug'urta bozoriishtirokchilarining mutlaq ko'pchiligidagi sug'urtakompaniyalariga kuchli raqobatchi bo'lgan boshqahududlardagi sug'urta kompaniyalarining filiallaritashkil etadilar. Moliya vazirligi huzuridagi Sug'urta Bozorini Rivojlantirish Agentligi tomonidan keltirilgan ma'lumotlari asosida sug'urta mukofotlari hajmining dinamikasini ko'rib chiqaylik (2-jadval).

⁵ Moliya vazirligi huzuridagi Sug'urta bozorini rivojlantirish agentligi rasmiy ma'lumotlariga ko'ra tuzildi.



2-jadval: Sug'urta mukofotlarining sug'urta turlari bo'yicha dinamikasi (mln. so'm)

Ko'rsatkichlar	2019	2020	2021	2022
Jami	2 313 903,6	2 213 713	3 732 845	6 231 726
Umumiy sug'urta tarmog'idagi sug'urta tashkilotlari, shu jumladan,	1 727 547,4	1 879 346	3 015 813	4 707 047
-ixtiyoriy	1 429 449,7	1 541 310	2 539 156	4 215 771
- majburiy	298 097,7	338 036	476 657	491 276
Hayotni sug'urta qilish tarmog'idagi sug'urta tashkilotlari, shu jumladan:	586 356,2	334 367	736 317	1 524 679
-ixtiyoriy	571 122,3	311 464	691 335	1 497 912
- majburiy	15 233,9	22 903	25 696	26 776

Kompaniyalarning soni ortishiga qaramay, jami sug'urta mukofotlari hajmi o'tgan yilga nisbatan ortdi va 6 231 726 mln. so'mni tashkil etdi. Demak, mamlakatimiz sug'urta bozorida mukofotlari o'sish tendensiyasiga ega.

3-jadval: Sug'urta mukofotlar dinamikasi hududlar kesimida (mln.so'mda)

№	Hudud	Sug'urta mukofotlari			
		2019	2020	2021	2022
	Umumiy	1 727 547,4	1 879 346,0	2 996 541	6 231 726
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	39 694,6	48 678,5	135 843	262 527
2	Andijon viloyati	69 856,1	73 641,1	108 373	165 349
3	Buxoro viloyati	73 070,9	80 554,7	100 871	166 988
4	Jizzax viloyati	51 984,1	44 676,7	47 748	78 918
5	Qashqadaryo viloyati	68 246,7	65 317,7	114 547	164 516
6	Navoiy viloyati	40 157,6	48 336,6	67 963	139 046
7	Namangan viloyati	65 196,3	68 800,4	81 805	168 627
8	Samarqand viloyati	69 507,5	79 814,3	98 412	144 892
9	Surxandaryo viloyati	56 466,3	49 813,5	63 896	86 017
10	Sirdaryo viloyati	35 777,9	43 556,9	49 671	56 888
11	Toshkent viloyati	143 096,4	161 952,5	124 694	200 077
12	Farg'ona viloyati	80 307,6	87 981,1	120 788	198 143
13	Xorazm viloyati	58 179,5	53 968,3	72 096	154 184
14	Toshkent shahri	876 005,9	972 253,9	1 809 834	4 245 555

Yalpi sug'urta mukofotida 10 ta eng yirik sug'urta kompaniyalari ulushi 52% (yoki 3 239 083 mln. so'm) ni tashkil qiladi. Bu esa, sug'urta bozorining konsentratsiyasi yuqori ekanligini ko'rsatadi. Tuzilgan shartnomalar soni 0,7% ga ortib, jami yig'ilgan sug'urta mukofotining ushbu shartnomalarga nisbatan sug'urta polisining o'rtacha narxi 889 ming so'mni tashkil etmoqda.

Yuqoridagi javdalda eng yuqori ulush Toshkent shaxrida 2022 1ilda 4 245 555 mln.so'm hamda eng past ko'rsatkich Sirdaryo viloyatida 56 888 mln. so'm qayd etilganini ko'rishimiz mumkin. Milliy sug'urta bozorini tahlil qilganda hududlarning iqtisodiy, tabiiy, madaniy, diniy xususiyatlari, mintaqaviy sug'urta bozorini rivojlantirish va uning ehtiyojlar uchun ma'lum bir variantni tashkil qiladi. Sug'urta bozorlari o'zgaruvchan bo'lib, ularning tuzilishi va tarkibi doimiy ravishda o'zgarib turadi. Bu o'z navbatida hududlardagi sug'urta qamroviga ham bog'liqdir. Hududlar kesimidagi sug'urta dinamikasining o'sishining sabablaridan biri nafaqat mahalliy sug'urta kompaniyalari (mintaqada ro'yxatdan o'tgan), balki filiallarning ham mavjudligidir. Hududlarda sug'urta bozorining holati mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy tizimiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Yurtimiz sug'urta bozori 14 ta hududni qamrab olgan. Bunda jami sug'urta kompaniyalarining hududiy filalillari, bo'linmalari kiradi. Ushbu bozor ikki asosiy ishtirokchilar: sug'urtalovchilar hamda sug'urtalanuvchilar ishtirokida sug'urta xizmatlarini sotish yoki sotib olish yo'li bilan sug'urta fondini shakllantirib undan qofoydalanish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar amalga oshiriladi.



Yuqoridagi jadvaldan ma'lum bo'limoqdaki, sug'urta mukofotining asosiy ulushi Toshkent shaxriga to'g'ri kelmoqda. Bu esa o'z navbatida hududlarning sug'urta faoliyati, aholi zichligi bilan bog'liq va milliy sug'urta munosabatlarda ayrim kamchiliklar mavjud. Misol uchun, kompaniyalar tomonidan mijozga yo'naltirilgan alohida mexanizm yo'qki, bugungi kunda bozor subyektlarining aksariyatida ishonchsizlik avj olgan. Bundan tashqari, kapitallashuv, operativsizlik, jumladan, tashqi xavflar (jahon moliya bozoridagi barqarorsizlik, global epidemiyaga kabi muammolar sug'urtalovchilarining imkoniyatlari ochilishiga to'siqlik qilmoqda. O'zbekiston sug'urta bozorini istiqbolli baholash uchun dastlab uning kuchli va zaif tomonlarini ko'rib chiqsak (4-jadval).

4-jadval: O'zbekiston sug'urta bozorining SWOT-tahlili

Kuchli tarafi	Kuchsiz tarafi
Yirik tadbirdorlikning yuqori daromadli sektori; Kredit tashkilotlari bilan birgalidagi faoliyati; Sug'urta biznesining birlashtirish va qayta tashkil etish; Sug'urta tarmog'iga ega ekanligi; Mijozlar sonini yetarli darajada; Aksariyat kompaniyalar tomonidan barcha zamonaviy texnologiyalarni qo'llanish yo'lg'a qo'yilganligi; Sug'urta agentlari soni ortib borayotgani; Sug'urta faoliyati turlariga bog'liq holda differensiatsiyalanishi.	Malakali kadrlar yetishmasligi; Zamonaviy biznes mexanizmlardan foydalanilmaslik; Marketing faoliyatini rivojlanmaganligi; Past kapitalizatsiya; Mijozlarga e'tiborning sustligi; Yuqori xarajatilik; Rentabellik past; Mijozlarning ishonchsizligi. Sug'urta infratuzilmasini ratsional shaklanmaganligi; Bozor ishtiroychilarining mobil ilova orqali faoliyat yuritmayotganligi.
Imkoniyatlar	Xavf
Respublika bo'yicha istalgan nuqtasiga xizmatlarni yetkazib berishi; Zamonaviy sug'urta xizmatlarni rivojlanishi; Sug'urta hodisasi ro'y berish riski kam; Davlat tomonidan sug'urta faoliyatiga bo'lgan e'tibor hamda olib borilayotgan islohotlar; Alohida sug'urta subyektlarining investitsion jozibadorligining ortishi; Sug'urta faoliyatining boshqa subyektlari huquqlari himoyasini kuchaytirish, aholining sug'urta savodxonligini va sug'urtaga bo'lgan ishonchini oshirish, sug'urta bozorining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash; Mijozlar bilan masofaviy faoliyat olib borish imkoniyati	Tarif rejalarining takrorlanishi; Bozor ishtiroychilarining bank faoliyatiga bog'liqligi; Mavjud xizmat ko'rsatish usullarini eskirganligi; Juhon moliya bozoridagi barqarorsizlik; Sug'urta vositachilari ustidan nazaratning yetarli emasligi; Qalloblik (firibgarlikning yuqori darajasi); Sug'urta hodisasi ro'y berganda baholash firmalari hamda sug'urta kompaniyasining o'zaro "kartel" kelishuvlari

Sug'urta kompaniyalarining zaif tomonlari (ishonchlikning pastligi va kapitallashuv, mijozga yo'naltirilmaganligi va boshqalar) mintaqaviy bo'linmalarning rivojlanishi, agentlik tarmoqlarining shakllanishi hamda majburiy sug'urta turlarini joriy etish orqali osonlashtirilmoqda. Yirik biznes korporativ sug'urtasining yuqori daromadli sektorida o'rtacha yo'qotishlari 50%ni tashkil etib, ish jarayoni hamda bu tarmoqning moliyaviy moslashuvchanligini oshiradi. Kredit tashkilotlari bilan o'rnatilgan aloqalar banklar bilan hamkorlikni uzoq muddat davom ettirish hamda rivojlanish imkonini yaratadi. Mijoz bilan o'zaro aloqalar sust bo'lganligi tufayli sug'urtalovchilar ko'pincha o'z mijozlari bilan munosabatlarni rivojlantirish imkoniyatiga ega emaslar.

Ko'p hollarda, mijozlar kompaniya bilan ikki holatda munosabatga kirishadilar: sug'urta shartnomasini tuzishda hamda sug'urta hodisasi ro'y bergandagina sug'urta qoplamasini olishda. Ikkinchidan, mijozlar sug'urta brendiga ahamiyat qilmaydilar. Ular uchun sug'urta sotib olish majburiyatdan boshqa narsa emas va mumkin bo'lgan eng past narxini topishga e'tibor bergenlar.

Shu bois, sug'urta kompaniyalarini hamda uning mijoji o'rtasidagi munosabatlar ayrim faktorlar sabab doim murakkab bo'lgan. Biroq iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari singari sug'urta bozori ham mijozlarga yo'naltirilgan raqamli texnologiyalar orqali takomillashtirilmoqda. Raqamli texnologiyalar sug'urta bozorida transformatsion jarayonlarni takomillashtirishga yordam beradi. Sug'urta bozorining rivojlanishi bugungi global olamda axborot xavfsizligini ta'minlaydigan dunyodagi innovatsion texnologiyalar bilan raqobatlashishga imkon beradigan raqamli sug'urta texnologiyalarini samarali joriy etish bilan bog'liq. Negaki, sug'urta bozorining o'zgarishi zamonaviy moliyaviy infratuzilmani shakllantirishga yordam beradi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalarni keltirib o'tamiz:

1. Bugungi kunda korxonalarning moliyaviy barqarorligi tushunchasiga ko'plab olimlar turlicha izohlanib, aynan bir ovozdan "moliyaviy barqarorlik" tushunchasiga tarif berilmagan. Ayniqsa, ko'p tahlillar ishlab chiqrish korxonalar uchun ishlab chiqilgan.
2. Risklarni boshqarish mexanizmi risklarni boshqarish tizimi singari bir necha darajalardan iborat bo'la-di. Ularga: Birinchi daraja – xalqaro; Ikkinci daraja – milliy; Uchinchi daraja – mahalliy. Bu darajada risklarni boshqarish mexanizmi sug'urta kompaniyasining nazorati, risklarni boshqarish va guruhlarning iqtisodiy maqsadlarini amalga oshirish talablarini ta'minlash uchun mikro darajada kompaniyaning faoliyatini ta'minlaydi.
3. Davlat tomonidan boshqaruv va o'z-o'zini boshqarish o'tasidagi ratsional nisbat sug'urta bozorining barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. O'n yillar ilgari olib borilgan liberallashtirish natijasida o'z-o'zini boshqarish e'tibordan chetda qoldi. Sug'urta boshqaruvidagi, ya'ni davlat tomonidan nazorat va o'z-o'zini boshqarish o'tasidagi nomutanosiblik bozorda nosog'lom raqobat, qayta sug'urta salohiyatining yetarli emasligi natijasida katta pul oqimlarining chetga chiqib ketishi, agentlar faoliyatining izdan chiqishi natijasida korrupsiyaning yuzaga kelishi, aktuar hisob-kitoblar qiliňmasligi va demping narxlar belgilanishi oqibatida to'lov qobiliyati pasayishi, kadrlar yetishmovchiligi kabi jiddiy muammolarni keltirib chiqardi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi "Sug'urta faoliyati" to'g'risidagi O'RQ-730-sonli qonuni <https://lex.uz/docs/5739117>
2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, 52-bob <https://lex.uz/docs/111189>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4412-sonli qarori <https://lex.uz/ru/docs/4459802>
4. Осенко С. А. Административная ответственность в сфере страхования / С. А. Осенко // промышл.-торговоеправо. – 2016. – № 4.
5. Козлова О.Н., Котова О.Н., Литвинова Э.Ю. Актуальные проблемы страхования жизни их решение с использованием маркетингового подхода // Экономические и гуманитарные науки. 2017. № 5.
6. М. Р. Eshov, A. U. Burxanov, X. N. Xasanov, D. A. Baratova, J. T. Nosirov "Sug'urta ishi asoslari"
7. I. X. Abduraxmonov. Sug'urta nazariyasi va amaliyoti: o'quv qo'llanma. – Т. : "Iqtisod-Moliya".–2018
8. Q. M. Qo'ldoshev "O'zbekiston milliy sug'urta bozorida o'zaro sug'urta xizmatlarini rivojlantirish masalalari" "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 2,-mart-aprel, 2019 y
9. Moliya vazirligi huzuridagi Sug'urta bozorini rivojlantirish agentligining "O'zbekiston sug'urta bozorining 2022-yil I yarim yillik bo'yicha ko'rsatkichlari" bo'yicha bergan ma'lumotlari. <https://imda.uz/uz/2022-1-yarim-yillik/>
10. <https://kun.uz/news/2019/08/03/prezident-sugurta-bozorini-isloh-qilishning-asosiy-yonalishlarini-belgilab-berdi>
11. <http://uza.uz/oz/documents/zbekiston-respublikasining-su-urta-bozorini-islo-ilish-va-un-02-08-2019>
12. https://tibbiysugurta.uz/wp-content/uploads/2022/09/Rus_Technical_report_Baseline_assessment_of_the_health_system_reform.pdf
13. <https://imda.uz/uz/9-oylik-2022/>
14. <https://openinfo.uz/uz/reports/16945/> kompaniyalarning hisobot ma'lumotlari asosida tuzildi
15. <https://uzbekinvest.uz/audit-financial>
16. https://www.kafolat.uz/uz/content/about/financial_results/
17. <https://www.insur-info.ru/press/176035/>

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Telefon: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lisingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

«Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot» jurnali 03.11.2022-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027



Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi 26-uy.